O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
BIOKIMYO INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi:
№ БД-60510100
2024 yil “10” 12

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2024 yil “__” _____

ODAM ANATOMIYASI FANINING
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	500000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta’lim sohasi:	510000- Biologik va turdosh fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60510100–Biologiya

Samarqand - 2024

Fan/modul kodi OA1304	O'quv yili 2025-2026	Semestr 3	ECTS – Kreditlar 4
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 5

	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami (soat)
1.	Odam anatomiyasi	52	68	120

I. Fanning maqsadi (FM)

FM1

I. FANNING MAZMUNI

Fanni o'qitishdan maqsad – Bu kursni o'qitishdan maqsad odam organizmining shaklini, tuzilishini, uning rivojlanish jarayonini o'rganadishdan iboratdir. Bu fan har a'zoni jinsiy tafovutlar jihatidan, shunindek atrof-muhitning a'zolar tuzilishi hamda vazifasiga bo'lgan ta'sirini o'rganadi. Odam organizmi tuzilishiga ko'ra murakkabligi, mehnatga layoqatliligi bilan hayvonlar organizmi tuzilishidan tubdan farq qiladi.

Fanning vazifasi – talabalarga ushbu tuzilish, rivojlanish qonuniyatlarini uning evolyusion taraqqiyot qonunlari – filogeneziga (phylon-avlod, genesis-taraqqiyot) taqqoslangan xolda hamda odam holatiga o'tish jarayoni - antropogenezi (antropos – odam)ni o'rganadi. Bu bilan *qiyosiy* yoki *solishtirma anatomiya* shug'ullanadi. Organizmning paydo bo'lishini, tug'ulguncha ona qornida o'sib, rivojlanib borishini *embriologiya* (embriogenez- embryon-murtak, kurtak) o'rgansa, tug'ilgandan boshlab to hayotining ohirigacha bo'lgan davrni "*yoshga doir*" *anatomiya* o'rganadi. Odam organizmi a'zolarining tuzilishi ularni vazifalariga bog'liq holda shaklanib borishi haqida asosiy bilim va tushunchalarni o'zlashtirish vazifasi rejalashtiriladi.

	Fanning mazmuni
	II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg`ulotlari)
	II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi.
M1	**Kirish. Odam anatomiyasi va antropologiya asoslari fanining maqsadi va vazifalari. Fanining qisqacha rivojlanish tarixi.** Odam anatomiyasi va uni o'rganishdagi asosiy maqsadi. Anatomiyaning boshqa fanlar (fiziologiya, gistologiya, embriologiya, qiyosiy anatomiya paleontologiya va antropologiya) bilan uzviy bog'liqligi. Zamonaviy o'rganish usullari. Qadimiy anatomiyaning qisqacha rivojlanish ta'rixi (Alkmeon, Krotonskiy, Gippokrat, Gerofil). O'rta asrlarda anatomiyaning rivojlanishiga katta xissa qushgan O'rta osiyo olimi Abu Ali Ibn Sino. Fransiya va Italiya olimlari.
M2	**Skelet suyaklari va ularni birikishi. Skelet va uning boylamlari haqida ta'limot** Skelet-tayanch, harakat va ximoya vazifalarini bijarish bilan bir qatorda, mineral tuzlar deposi ham hisoblanadi. Skeletning kimyoviy tarkibi, suyak tuzilishining mexanik prinsiplari. Embrion taraqqiyoti davrida skeletning rivojlanishi. Qoplovchi suyaklar va ularga umumiy ta'rif. Naysimon suyaklarning tuzilishi. Epifiz va diafiz kupigi. Odam oyoq suyaklari. Qo'l va oyoqning yerkin qismidagi suyaklar, ularning o'ziga xos qiyosiy tuzilishlari. Suyaklarning birikishi haqida umumiy tushuncha.

M3	**Umurtqa pog'onasi suyaklari. Ko'krak qafasi** Odamning umurtqa pog'onasining tuzilishi, umurtqa pog'onasining bo'limlarga bo'linishi, umurtqalarining bir-biridan farqi, alohida umurtqalarning tuzilishi. Vazifalariga qarab umurtqalarning tuzilishidagi farqlar. Ko'krak qafasi suyaklarining tuzilishi. Nafas olish jarayonida kukrak qafasining harakati.
M4	**Qo'lning erkin turgan bo'limidagi suyaklar. Yelka kamari suyaklari va ularning birikishi** Odam qo'l suyaklari. Qo'lning erkin qismidagi suyaklar, ularning o'ziga xos qiyosiy tuzilishlari. Alohida qo'l suyaklarining tuzilishi. Yelka kamari suyaklari va ularning birikishi.
M5	**Oyoqning erkin turgan bo'limidagi suyaklar. Oyoq kamari suyaklari va ularning birikishi** Odam oyoq suyaklari. Oyoqning erkin qismidagi suyaklar, ularning o'ziga xos qiyosiy tuzilishlari. Alohida oyoq suyaklarining tuzilishi. Chanoq kamari suyaklari va ularning birikishi.
M6	**Bosh skeleti. Kalla suyaklari: kallaning ensa, peshona, tepa, chakka, ponasimon va g'alvirsimon suyaklari** Bosh skeleti yoki kalla suyaklari va ulardan har birining o'ziga xos vazifalari. Nevrokranium va splanxnokranium haqida tushuncha. Kallaning ensa, peshona, tepa, chakka, ponasimon va g'alvirsimon suyaklari.
M7	**Kallaning yuz suyaklari** Bosh skeleti yoki kalla suyaklari va ulardan har birining o'ziga xos vazifalari. Nevrokranium va splanxnokranium haqida tushuncha. Kalla hamda yuz suyaklarining tuzilishi, yangi tug'ilgan bola kalla suyaklarining tuzilishi, kalla skeletining tuzilishi haqida irkiy «nazariya»ga tanqid.
M8	**Muskullar: gavdaning yuza va chuqur joylashgan muskullari bosh, bo'yin va yuz (mimika) muskullar** Gavdaning yuza va chuqur joylashgan muskullari bosh, bo'yin va yuz (mimika) muskullari. Muskullar to'g'risida umumiy ma'lumot. Muskullarning vazifasi va tuzilishi. Muskullarning takomillashishi, makro va mikroskopik tuzilishi. Yordamchi aparatlari, birikishi. Morfo-fiziologik xususiyatlari. Muskullarning evolyusion taraqqiyoti haqida qisqacha ma'lumot.
M9	**Ovqat hazm qilish a'zolari** Hazm qilish a'zolarining tuzilishi, filogenez va ontogenezda rivojlanishi. Seroz va shilliq pardalar haqida tushuncha. Hazm nayi devorining mikroskopik tuzilishi, har xil qismlaridagi o'xshashlik va farqlar. Ovqat hazm qilish sistemasi haqida umumiy tushuncha, har xil qismlarda ovqatning parchalanishi, (ovqat modalarining kimyoviy tarkibi, ovqat hazm qilish nayi devorida joylashgan bezlarning sekretlari, fermentlari va hokazolar). Og'iz bo'shlig'i, uning kirish qismi, daxlizi va xususiy og'iz bo'shlig'i. Xalqum, qizilo'ngach, me'da, ingichka ichaklar (o'n ikki barmoqli, och, yonbosh ichaklar) har xil qismlarining joylashgan joyi, tuzilishi va vazifalari. Jigar uning chegarasi, vazifasi, tuzilishi, o't pufagining joylashishi, o't chiqaruv kanalchasi.
M10	**Nafas olish sistemasi** Nafas olish organlarining asosiy ontogenetik xususiyatlari. Burun bo'shlig'i. Xiqildoq va uning tuzilishi. Traxeya. Bronxlar va Bronx-larning shaklanishi. O'pkalar, Plevra. Nafas yo'llari devorining tuzilishi. nafas olish mexanizmi, nafas olish akti va o'pkalar evolyusiyasi to'g'risida tushuncha. Umurtqa pog'onasi bilan ko'krak qafasi orasidagi bo'shliq.
M11	**Siydik va tanosil a'zolari** Buyrak. Erkaklar va ayollar jinsiy organlari: urug'don, tuxumdon, ortig'i, prostata bezi, bachadon, tashqi tanosil a'zolari (qin). Siydik a'zolari quyidagi qismlardan tashkil topgan. Buyraklar. Siydik yo'llari. Siydik pufagi. Siydik chiqaruv kanalchasi. Ularning asosiy vazifasi modda almashinish jarayonida sodir bo'lagan chiqindi moddalarni tashqariga chiqarib berish.
M12	**Qon tomirlar tizimi. Tomirlar sistemasi haqida ta'limot. Arteriya, vena va kapilyarlarning tuzilishi. Qon aylanish doiralari.** Yurak va uning tuzilishi. Qon aylanishining kichik doirasini arteriya va venalari. Ular yuqorigi

	va pastki kavak venalari. Tomirlar sistemasi haqida ta'limot (angiologiya). Tomirlar sistemasi to'g'risida umumiy obzor. Qon aylanishining odam hayotidagi ahamiyati. Yurak va qon tomirlari ontogenezi haqida tushuncha. O'rta yoshdagi odamning yuragining tuzilishi va holati. Qon aylanish doiralari.
M13	**Nerv tizimi. Nerv sistemasi haqida ta'limot** Umumiy tushunchalar. Bosh va orqa miya nerv sistemasi. Nerv sistemasi va tuzilishining bir butunligi haqida. I.M.Sechenov va I.P.Pavlov ta'limotlari. Nerv sistemasining morfologik va gistoloik asosini tashkil qiluvchi elementlar. Orqa miya, uning tashqi va ichki tuzilishi, joylashgan joyi, vazifasi va taraqqiyoti. Bosh miya – umumiy ma'lumotlar, taraqqiyoti joylashgan joyi. Bosh miyaning qismlarga bo'linishi, ulurning vazifasi va miya qorinchalari tuzilishi. Vegetativ va pereferik nerv sistemalari. Bosh va orqa miyada chiquvchi nervlar.
M14	**Sezgi a'zolarining umumiy tavsifi. Eshitish, ko'rish, teri sezish, hid bilish va ta'm bilish a'zolarining tuzilishi.** Sezgi a'zolari yoki analizatorlar haqida umumiy tushuncha. Sezgi a'zolari haqida ma'lumotlar, sensor sistemalar, ularning reseptorlari. Sezgi a'zolari filogenezi va ontogenezi. Eshitish va muvozanat a'zolari, ularning ontogenezi. Tashqi, o'rta va ichki quloqlar ularning tuzilishi. Ko'rish a'zosi yoki ko'rish analizatorlari, ularning filogenezi va ontogenezi. Ta'm bilish a'zolari, ularning tuzilishi so'rg'ichlarining joylashgan joylari. Hid bilish a'zolari.
III. Amaliy mashg'ulotlar (A) bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.	
A1	Umurtqa pog'onasi suyaklari. Ko'krak qafasi
A2	Yelka kamari suyaklari va ularning birikishi
A3	Qo'lning erkin turgan bo'limidagi suyaklar.
A4	Oyoq kamari suyaklari va ularning birikishi
A5	Oyoqning erkin turgan bo'limidagi suyaklar.
A6	Bosh skeleti. Kalla suyaklari: kallaning ensa, peshona, tepa suyaklari
A7	Kallaning yuz bo'limi suyaklari: ko'z yoshi suyaklari, yuqorigi va pastki jag' suyaklari
A8	Muskullar: gavdaning yuza va chuqur joylashgan muskullari bosh, bo'yin va yuz (mimika) muskullar.
A9	Ovqat hazm qilish a'zolari.
A10	Nafas olish sistemasi.
A11	Siydik va tanosil a'zolari.
A12	Qon tomirlar tizimi. Tomirlar sistemasi haqida ta'limot. Arteriya, vena va kapilyarlarning tuzilishi. Qon aylanish doiralari.
A13	Nerv tizimi. Nerv sistemasi haqida ta'limot. Markaziy nerv sistemasi.
A14	Orqa miyaning tuzilishi
A15	Bosh miyaning tuzilishi
A16	Periferik nerv sistemasi.
A17	Sezgi a'zolari. Teri sezish a'zolari. Eshitish va ko'rish a'zolari.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilgan mavzular **"Odam anatomiyasi"** fani bo`yicha ma'ruza mashg`ulotlari bo`yicha mustaqil ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
1	Umurtqa pog'onasi suyaklari.
2	Qo'lning erkin turgan bo'limidagi suyaklar.
3	Oyoqning erkin turgan bo'limidagi suyaklar. Oyoq kamari suyaklari va ularning birikishi.
4	Bosh skeleti. Kalla suyaklari: kallaning ensa, peshona, tepa, chakka, ponasimon va g'alvirsimon

	suyaklari.
5	Kallaning yuz suyaklari.
6	Muskullar: gavdaning yuza va chuqur joylashgan muskullari bosh, bo'yin va yuz (mimika) muskullari.
7	Ovqat hazm qilish a'zolari.
8	Nafas olish sistemasi.
9	Siydik va tanosil a'zolari.
10	Tomirlar sistemasi haqida ta'limot. Arteriya, vena va kapilyarlarning tuzilishi. Qon aylanish doiralari.
11	Nerv tizimi. Nerv sistemasi haqida ta'limot.
12	Eshitish, ko'rish va sezgi a'zolari.

"Odam anatomiyasi" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, Odam anatomiyasi fanining tarixiga oid mavzularda talabada bilim ko'nikmasini shakllantirish e'tiborga olingan. Masalan, Odam anatomiyasi fani odam organizmining tuzilishi, uning a'zolarining tuzilishi va vazifalarito'g'risidagi hozirgi zamon tushunchalarini o'rganishga qaratilgan. Ushbu Odam anatomiyasi fani odam organizmining tuzilishi haqida keng ma'lumotlar berib ular haqida ham o'quvchilar bilim ko'nikmasiga ega bo'ladi. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • **"Odam anatomiyasi"** fani bo'yicha talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qullay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) buyicha ***tasavvur va bilimga ega bo'ladi;*** • Talaba **"Odam anatomiyasi"** fannining alohida fan sifatida mavqyeiga ega bo'lishi, o'qishi davomida hujayra haqida umumiy tushunchalarga ega bo`ladi, odam organizmi organlarining tuzilishi, bajaradigan vazifalari va kelib chiqishi bo`yicha ma`lumotlarga ega bo`ladi. Odam organizmining anatomik tuzilish prinsiplarini tushunib yetadi, uning mohiyatini tushunish va o'rganishning zamonaviy usullari haqida ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***. Talaba o'zlashtirayotgan fan bo'yicha egallagan bilimlarini tahlil qilish jarayonida umumiy biologik dunyoqarashni kengaytirish, odam va hayvonlar to'qimalarining tuzilishi va organizmlarning rivojlanish jarayonlarini o'rganish bilan birga kelajakda o'rganadigan usullar va ularni bajarish ***malakalariga ega bo'lishi kerak***.
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar, • taqdimot slaydlari; • Klaster, • vaziyatli masalalar, • test, • bliss savollar; • kuzatish, • qiyoslash, • munozara.
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira

	olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

Asosiy adabiyotlar:

1. Ахмедов Н.К. АТЛАС. Одам анатомияси. Тошкент. «Тиббиёт нашри» 1996.
2. Қодиров Э.Қ. Одам анатомияси. Chinor ENK; Тошкент, 2007.
3. Ahmedov A.A., Rasulov X. – Odam anatomiyasi Toshkent " Iqtisod- moliya" 2013

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Алланазарова Н.А., Рузикулова Н.А. Учебно-методическое пособие по «Биологии человека (анатомия)» раздел Остеология, Миология - Самарканд: Издательство СамГУ, 2018 - стр. 119.
2. Алланазарова Н.А., Рузикулова Н.А., Мамашукуров А.У. «Анатомия человека» раздел Спланхнология. Неврология (учебное пособие) - Самарканд: Издательство СамГУ, 2019 - стр.147.
3. Сапин М.Р., Билич Г.Л. Анатомия человека т.т. 1-2, М., Высшая школа, 2007.
4. Харрисон Дж., Уайнер Дж., Тэннер Дж. и др. Биология человека. М., 1979.
5. Хрисанфова Е.И. Антропология: Учебник – 3-е изд./ Е. И. Хрисанфова, И. В. Перевозчиков – М.: Высшая школа, 2002. – 400 с.
6. Cecie Starr. Human biology. Brook/Cole Gengager Learning, USA 2010.

Axborot manbalari (saytlar):

www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
www.zivonet.uz –Ta'lim portali.
www.natlib.uz – O'zbekiston milliy kutubxonasi portali.
www.floranimal.ru –портал энцеклопедия природы.

7.	Fan dasturi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy Kengashining 2024 yil "24" avgustdagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar**: Jabborov A.R. – SamDU, "Zoologiya" kafedrasi mudiri, professor, biologiya fanlari doktori (DsC). A.U.Mamashukurov – SamDU, "Zoologiya" kafedrasi assistenti, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
9.	**Taqrizchilar:** Z.I.Izzatullayevv – Sharof Rashidov nomidagi SamDU universiteti Ekologiya va hayot faolyati xavfsizligi kafedrasi professori (tashqi). (tel: (93) 337 17 72 Fundukchiyev S.E. – SamDU, "Zoologiya" kafedrasi professori, biologiya fanlari nomzodi (ichki). (tel: (91) 555-63-73)

Universitetning 2024-yil 16-avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – Jalov X.H.

Zoologiya kafedrasi mudiri: **prof. A.R.Jabborov**

Biokimyo instituti direktori: **prof. S.X.O'roqov**

SamDU o'quv ishlari bo'yicha 1-prorektor: **prof. A.S. Soleev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, 60510100 – Biologiya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan "Odam anatomiyasi" fani dasturiga.

TAQRIZ

Odam anatomiyasi fanini o'qitishdan maqsad talabalarga Odam organizmi tuzilishi to'g'risida tushuncha berish, turli organlar ularning taraqqiyoti to'g'risida, odam organizmi tuzilishining murakkabligi, mehnatga layoqatliligi, hayvonlar organizmi tuzilishidan tubdan farq qilishi. Ana shu tuzilish, rivojlanish qonuniyatlarini uning evolyusion taraqqiyot qonunlari - filogeneziga (phylon-avlod, genesis-taraqqiyot) taqqoslangan holda o'rganish, organizmi a'zolarining tuzilishi ularni vazifalariga bog'liq holda shaklanib borishini o'rganishdan iborat. Mazkur fan dasturi fanning aynan shu maqsadlaridan kelib chiqqan holda amaldagi DTS talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. O'quv dasturida belgilangan mavzular fanning o'quv va ishchi o'quv rejalarida belgilangan soatlar hajmini to'la qamrab oladi. O'quv dasturining asosiy nazariy qismida ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari va ushbu mavzularning tayanch tushunchalari berilgan. Ma'ruza mavzulari izchil va bir- biri bilan uzviylikda berilgan. Amaliy mashg'ulotlar mavzulari ham mavjud imkoniyatlar asosida tuzilgan. Berilgan mashg'ulotlar talabalar tomonidan to'liq bajarilishi katta amaliy ko'nikma va bilimlar shakllanishiga asos bo'ladi. Fan o'quv dasturining ahamiyatli jihatlaridan biri mustaqil ta'lim mavzulari talabalarni ma'ruza va amaliy mashg'ulot mavzularidan tashqari bilimlar olishga undaydi. Mustaqil ta'limni sifatli amalga oshirishlari uchun kerakli bo'lgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ham dasturdan o'rin olgan.

Umuman olganda "Odam anatomiyasi" fan dasturi mavjud DTS talablari asosida tuzilgan va ishchi o'quv dasturlari uchun asos b'lib hizmat qiladi.

Sharof Rashidov nomidagi
SamDU Ekologiya va hayot faoliyati
xafsizligi kafedrasi professori, b.f.d. **Izzatullayev Z.I**

_____ning imzosini
tasdiqlayman
Sharof Rashidov nomidagi
SamDU xodimlar bo'limi boshlig'i

XODIMLAR BO'LIMI

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, 60510100 – Biologiya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan "Odam anatomiyasi" fani dasturiga.

TAQRIZ

Odam anatomiyasi fani-odam tanasining tuzilishi, rivojlanishi, a'zolari va tizimlarining funksiyalarini bir-biriga bog'lab o'rganish. Odam anatomiyasi fan tizimlari bo'yicha etuk ma'lumotlarni berish bilan birga har bir tizimga xos anatomik tuzilishlarini funksiyaga bog'lab o'rgatish. Barcha tizimlari bo'yicha faqat nazariy bilimlar beribgina qolmasdan amaliy darslarda kafedrada mavjud adabiyotlar, atlaslar, mulyaj, skelet va uni suyaklaridan foydalanib amaliyot darslarini ham olib boriladi.

Odam organizmi tuzilishining murakkabligi, mehnatga layoqatliligi, hayvonlar organizmi tuzilishidan tubdan farq qilishi. Ana shu tuzilish, rivojlanish qonuniyatlarini uning evolyusion taraqqiyot qonunlari - filogeneziga (phylon-avlod, genesis-taraqqiyot) taqqoslangan holda o'rganish, organizmi a'zolarining tuzilishi ularni vazifalariga bog'liq holda shaklanib borishini o'rganishdan iborat.

Ma'ruza mavzularida fanning rivojlanish tarixi, predmeti, vazifalari va umumiy parazitologiya bo'limlarini to'la qamrab olgan. Ma'ruza darslarida olingan nazariy bilimlar o'quvchilarning amaliyot darslari uchun asos bo'lib hizmat qilishi ustuvor vazifa sifatida belgilab olingan. Fanning amaliy mashg'ulotlari mavzulari bevosita amaliyot bilan bog'liq holda tuzilgan. Keltirilgan mavzular ma'lum turdagi parazit haqida umumiy ma'lumotlar va profilaktik tadbirlar haqidagi bilimlarni talabalarga berilishi mo'ljallab yozilgan.

Mustaqil ta'lim mavzulari ham talabalarning mustaqil ishlashlarini ko'zda tutilgan holda tuzilgan. Berilgan mavzular bo'yicha ko'proq ma'lumot olishlari uchun asosiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan birga kerakli internet saytlarning berilishi ham maqsadga muvofiq bo'lgan.

Umuman olganda "Odam anatomiyasi" fan dasturi mavjud DTS asosida tuzilgan va barcha talablarga javob beradi.

Sharof Rashidov nomidagi
SamDU zoologiya kafedrasi professor, b.f.n. **Fundukchiyev.S.E**

_____ning imzosini
tasdiqlayman
Sharof Rashidov nomidagi
SamDU xodimlar bo'limi bosh

XODIMLAR BO'LIMI